

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI  
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami**

**2024-yil 17-may**

**Сборник материалов международной научно-практической  
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ  
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**17 мая 2024 года**

**Collection of materials of the international scientific and practical conference**

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE  
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

**May 17, 2024**

**Guliston – 2024**

**УДК: 81:37.091.33(08)**

**ББК: 81+74.00**

**П 78**

**Ta'lim transformatsiyasi sharoitida tillarni o'qitishning muammolari va istiqbollari:** xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Guliston, “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti. 2024-yil. – 550 b.

*To'plamga xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etgan olimlar, o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalarning ma'ruza materiallari kiritilgan. To'plamda keltirilgan materiallar nafaqat mutaxassislar, doktorantlar va talabalar uchun, balki keng kitobxonlar uchun ham qiziqarli bo'ladi.*

**Tahririyat a'zolari:**

**Kurbanov B. Sh.**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Jabborova D. D.**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Gizatulina O. I.**, katta o'qituvchi

**Taqrizchilar:**

**Jumanova D. R.**, filologiya fanlari doktori, professor

**Mamatova X. M.**, pedagogika fanlari doktori, dotsent

*Maqolalar mualliflari materiallarning ishonchliligi, keltirilgan faktlar, iqtiboslar va havolalarning to'g'riligi uchun mas'uldirlar.*

*Guliston davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9910-792-45-8**

**Mualliflar jamoasi, 2024**

**Ziyo nashr matbaa XK**

5. Медяник Г. А. Педагогические технологии творческого саморазвития личности студента в процессе педагогической практики. Дисс. канд. пед. наук. – Россия, 2000. – 177 с.

6. Маркова А. К., Деркач А. А. Профессиограмма специалиста кадровой службы: Учебно-методическое пособие . – М.: Изд-во РАГС, 2001. – 24 с.

## **RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI HOLATI VA BU SOHADA QILINAYOTGAN ISHLAR**

*Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi, tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*  
*e-mail: [malokhatsirojiddinova@gmail.com](mailto:malokhatsirojiddinova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz aholisining ish bilan bandlik darajasi, hamda mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayoni va keyingi yillar uchun tuzilgan rejalar o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** bandlik, raqamli transformatsiya, modernizatsiya, ITES, AKT sohasida bandlik, IT park.

Hozirgi tez o‘zgarayotgan texika va texnologiya davrida korxonalar raqobatbardoshligini saqlash uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi lozim va biznes jarayonida amalda olib borilayotgan boshqaruv tizimlarini samaraliroq qilish hamda rivojlanishdan orqada qolayotgan bo‘limlarini yaxshilash maqsadida korxonalarda raqamli transformatsiyasi jarayoni ro‘y berayotganligiga guvoh bo‘lyapmiz.

Global pandemiya boshlanishi an’anaviy tarzda ish yurituvchilar o‘z faoliyatini online tarzga o‘tqazishi lozimligini isbotladi va korxonalar va tashkilotlar o‘z xizmatlarini online tarzda taqdim etishga majbur bo‘lib, ish bilan bandlik va daromadga raqamli texnologiyalardan faol foydalangan holda erishdi.

Haqiqatan ham, raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega. Chunki raqamlashtirish orqali mahsulotni ishlab chiqarish vaqtining sezilarli darajada pasayganligi hamda mahsulotni yetkazib berish bilan bog‘liq yo‘llarning ko‘payganligi va boshqa ko‘plab ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va iste’molchilarga yengillik yaratganligini o‘tgan ikki-uch yil davomida guvohi bo‘lib turibmiz.

Masalan, 2022-yilning yanvar oyi holatiga ko‘ra:

davlat xizmatlarining 56 % [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali taqdim etilgan bo‘lib, 307 tani tashkil qildi;


1,3 milliondan ortiq fuqaro ushbu xizmatlardan foydalangan.

internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa 2023-yilning boshida 27,2 millionga yetgan.

2017-2021 yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo‘shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so‘mga (1 milliard AQSh dollaridan ortiq) yetdi.

Oliy ta’lim muassasalari hududida IT parklarning tashkil etilishi 46 million

AQSH dollarlik daromadning aynan ushbu sohadan kelishiga, shuningdek IT sohasidagi eksport hajmining 50 marotaba oshishiga sabab bo'ldi. 2023-yilda 11 mingdan ortiq yoshlar IT parklarda ish bilan bandligi kuzatilgan bo'lib, yuqori maosh bilan ta'minlaydigan 8 500 ish o'rni yaratildi.



**1-rasm.** Axborot iqtisodiyoti va elektron tijarat sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (mlrd. so'm)

2023-yilning sentabrda, jahon banki 2030-yilgacha O'zbekiston uchun milliy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqdi va bu strategiyada mamlakatning asosiy rivojlanish maqsadlari va turli xil sohalardagi muhim o'zgarishlari ajratib ko'rsatilgan.

2023-yilning 30-noyabrda Jahon banki 50 million AQSH dollarilik raqamlashtirish loyahasini respublikamizda yo'lga qo'ydi va bu loyihada:

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish;

chekka hududlardagi aholining raqamli texnologiyadan foydalanishiga erishish;

raqamli texnologiya yo'nalishida yangi ish o'rinlarini yaratish;

raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun zaruriy bilimlarga ega bo'lish imkoniyatining yaratilishi kabilar e'tibor markaziga olingan.

Jahon banking xabar berishicha, 2029-yilning oxiriga qadar 25 000 nafar shaxslar IT yo'nalishida ish bilan ta'minlanadi va yana 15 000 nafari esa IT sohasi bilan bilvosita aloqada bo'lgan yo'nalishlarda ish bilan band bo'lishi strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri. Bundan tashqari dasturda quyidagilar ham nazarda tutilgan:

6 200 yoshlarga, 3 100 nafar xotin-qizlar va 250 nafar nogironligi bo'lgan shaxslarga kompyuter savodxonligi, aloqa, IT sohasida chuqurroq bilimga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan tillarni o'rgatish;

9 000 nafarga yaqin yoshlar, shulardan 4 500 nafari ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ITES (Information Technology Enabled Services) kompaniyalari tomonidan ishga olinishi;

240 ga yaqin ITES (Information Technology Enabled Services)

korxonalarining IT parklarda joylashtirilishi va o‘zlarining amalyotlarini mamlakat ichida olib borilishi kabilar kiritilgan.

Respublikamiz statistika qumitasi ma’lumotlariga ko‘ra, dasturlash faoliyati bilan band korxonalar soni 2022-yilga nisbatan 500 taga ortgan, ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar soni esa 704 taga yetgan, o‘tgan yilga nisbatan taxminan 80 taga ortgan.

**1-jadval**

**Iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-yanvar holatiga ko‘ra)**

<b>Tarmoqlar</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
Kitoblar nashr qilish	217	242
Simli aloqa xizmatlari	362	386
Simsiz aloqa xizmatlari	1457	1588
Kompyuter dasturlash sohasidagi faoliyat	1121	1618
Ma’lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	628	704

**Adabiyotlar**

1. Anarbayeva F. U. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limni raqamlashtirishning imkoniyatlari // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” ilmiy elektron jurnali. 2023. № 2 (10). – B. 84.

2. “Oliy ta’limni raqamlashtirishning imkoniyatlari va ahamiyati” Abdullayeva M, Anarbayeva F. “Hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish xalqaro va milliy konsepsiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023-yil 19-20 may. – B. 490-496

3. stat.uz

4. e-gov.uz

5. worldbank.org

6. lex.uz

7. wto.org

**ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТАҲДИДЛАРИНИНГ ЁШЛАР  
ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ**

*Ахмадҷонова Нафосат Комилҷон кизи, талаба, Гулистон давлат  
университети*

*e-mail: [nafosataxmadjonova961@gmail.com](mailto:nafosataxmadjonova961@gmail.com)*

**Аннотация:** Ҳозирги даврда интернет тармоғига уланган компютер, мобил телефонлари деярли кўплаб хонадонларда мавжуд. Бундан ташқари, ёшлар интернет кафеларда ҳам тармоқдан фойдалана оладилар. Бугунги кунда ахборот технологиялари жадал тараққий этиши ва ижтимоий-